


Sharq mamlakatlari tarixi tizimida

MARKAZIY OSIYO VA O'ZBEKISTON TARIXI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI

**SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI TIZIMIDA MARKAZIY OSIYO VA
O‘ZBEKISTON TARIXI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Toshkent-2025

UO‘K: 94(543)(575.1)
KBK: 63.3 (543)(5Uzb)
Sh-53

Professor Sanobar Shadmanovanning 60 yilligiga bag‘ishlangan “Sharq mamlakatlari tarixi tizimida Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2025. – 607 bet.

Mas’ul muharrir:

t.f.d., prof. D.B.Sayfullayev

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori, prof. N.E.Karimova

Tarix fanlari doktori, prof. I.Xaydarov

Tahrir hay’ati:

Tuychi Axmedov, Nargizaxon Alimova, Lutfiya Qodirova, Mashhura Temirova, Ozodbek Rajabov, Azizbek Badalov, Laziza Ro‘ziyeva, Madina Samiyeva, Abduvaxob Egamberdiyev

Ushbu to‘plam professor, tarix fanlari doktori Sanobar Shadmanovanning 60 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiya maqolalaridan iborat. Mazkur maqolalar Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur nashr ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va tarix faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 29-martdagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8059-4-3

© Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, 2025-yil

28. Тошкентда дорилмуаллимин расмий кушоди // “Халқ дорилфунини” газетаси. 1918 йил 14 июн.

29. Тошкентда дорилмуаллимин расмий кушоди // “Халқ дорилфунини” газетаси. 1918 йил 14 июн.

KOREYA RESPUBLIKASINING 1960–1987 YILLARDAGI SIYOSIY EVOLYUTSIYASI: AVTORITARIZMDAN DEMOKRATIYAGA YO‘L

Salimov Shoxrux
TDSHU tadqiqotchisi

Annotasiya: Jahon siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar va global muvozanatning qayta shakllanishi sharoitida Janubiy Koreya tashqi siyosatida “ilg‘or davlat” maqomini qo‘lga kiritishga intilish - alohida tahlilga loyiq murakkab va ko‘p qirrali siyosiy jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu maqsad atrofida shakllangan “Global Koreya” shiori mamlakatning tashqi siyosiy strategik kun tartibida markaziy o‘rinni egallab, milliy o‘zlikni anglash, global pozitsiyani belgilash va tashqi siyosatiga konseptual ma‘no baxsh etishda muhim semiotik ramzga aylandi. Mazkur yondashuv xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtai nazaridan globalizasiya diskursi bilan o‘zaro ta’sirlashuvda Janubiy Koreyaga o‘z milliy strategiyasini qayta ifoda etish uchun interpretasion platforma sifatida xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Koreya Respublikasi, milliy identiklik, Global Koreya, globalizasiya.*

Annotation: Amid changes in the global political system and the reconfiguration of the international balance of power, South Korea's pursuit of the status of an "advanced nation" in its foreign policy emerges as a complex and multifaceted political process worthy of special analysis. The slogan "Global Korea," formed around this goal, occupies a central place in the country's strategic foreign policy agenda, becoming an important semiotic symbol in shaping national identity, defining its global position, and imbuing its foreign policy with conceptual meaning. This approach, from the perspective of international relations theory and in interaction with the discourse of globalization, serves as an interpretive platform through which South Korea can rearticulate its national strategy.

Keywords: *Republic of Korea, national identity, Global Korea, globalization.*

Kirish. Xalqaro munosabatlar mutaxassislari tomonidan qayd etilganidek, Sovet Ittifoqi parchalanishi va ikki qutbli dunyo tartibining tugashi bilan globalizasiya tushunchasi dunyo siyosiy maydonida faol muhokama etila boshladi. Ko‘plab davlatlar bu jarayonni milliy rivojlanish strategiyasi darajasiga olib chiqishga urinishdi. Ayniqsa, Janubiy Koreyada bu jarayon o‘ta dinamik va davlat darajasida yuritilgan. Prezident Kim Yon Sam boshchiligidagi hukumat tomonidan “globallashuv” atamasiga milliy mazmun yuklanib, “segyehwa” (segehva) konsepsiyasi davlat siyosati sifatida joriy etildi va qat’iy amalga oshirildi [1,55].

Ushbu konsepsiyada globallashuv Janubiy Koreya uchun “ilg‘or, rivojlangan mamlakat” maqomini qo‘lga kiritishning eng maqbul yo‘li sifatida ta’riflangan. Taniqli olim Semyuel Kim ta’kidlaganidek, Sovuq urushdan keyingi davrda hech qaysi davlat

globallashuvni bunchalik shijoat bilan qabul qilmagan va Janubiy Koreya kabi faol tashqi siyosiy yoʻnalish tanlamagan.

Globallashuv va milliy identichlik oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik Koreya jamiyatida juda murakkab va koʻp qirrali tusga ega. Teoretik nuqtai nazardan ham har ikkala tushuncha izchil nazariy asosga ega. Lekin bugungi kunda milliy identichlikni, odatda, etnik oʻzlik bilan bogʻlash tendensiyasi hukmron ekanini qayd etish joiz.

Ayrim tadqiqotlarda bu holat “koreys paradoksi” deb atab kelinmoqda, yaʼni bir jamiyat doirasida bir paytning oʻzida ham globallashuvni qoʻllovchi, ham milliy-etnosentrizmi ustuvor deb biladigan ikki muqobil va raqobatlashuvchi tendensiyalar rivojlanmoqda. Ushbu tendensiyalar koreys jamiyatidagi globallashuv va milliy gʻoyalar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikning mutlaq obʼyektiv manzarasini toʻliq ifodalay olmaydi.

Mazkur maqola mazkur paradoksni hal qilishni maqsad qilmaydi, balki Janubiy Koreyada globallashuv va milliylik tendensiyalarining bir vaqtning oʻzida mavjud boʻlishiga imkon bergan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar va kontekstni yoritishga yoʻnaltirilgan.

Poststrukturalistik identichlik nazariyalariga tayanilgan holda, ushbu maqolada milliy identichlik jamiyatdagi maxsus maʼnoli ijtimoiy diskurs sifatida qaraladi. U til va boshqa belgili tizimlar orqali yaratiladi, takrorlanadi, transformasiya qilinadi va hatto yoʻq qilinadi. Shu bois milliy identichlikni anʼanaviy holda koʻzlangan barqaror va oʻzgarmas tuzilma sifatida emas, balki oʻzgaruvchan, nozik, tez shikastlanuvchan va koʻpincha ziddiyatli ijtimoiy tuzilma sifatida tushunish zarur. Milliy identichlikning diskursiv xususiyatlari uning har xil tarixiy davrlarda turli shakllarda namoyon boʻlishi, hatto bir vaqtning oʻzida bir necha parallel identichlik shakllarining mavjud boʻlishini ham istisno qilmaydi [3,67].

Bundan tashqari, milliy identichlikni shakllantirishdagi muhim nazariy poydevorlardan biri sifatida “rivojlanish diskursi” (developmentalism) alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv Ikkinchi jahon urushidan soʻng koʻplab davlatlar uchun dunyoqarash va milliy oʻzlikni shakllantirishda taʼsirli omil boʻlib xizmat qildi. Ushbu maqolada, ayniqsa, Koreyada developmentalism diskursi qanday shakllangani va uning globalizasiya sharoitidagi milliy oʻzlik dinamikasiga qanday taʼsir koʻrsatgani tahlil qilinadi.

Xususan, Koreyada yevrosentrizmga asoslangan global rivojlanish modelining taʼsiri “seonjinguk” (ilgʻor mamlakat) konsepsiyasi orqali milliy oʻzlikni shakllantirishning asosiy diskursiv ramkasiga aylangani qayd etilgan. Tadqiqotchi Kim Juntening taʼkidlashicha, “seonjinguk” va unga qarama-qarshi “hujinguk” (ortada qolgan mamlakat) konsepsiyalari orqali “rivojlangan” va “rivojlanmagan” mamlakatlar oʻrtasidagi tuzilmaviy farqlar mustahkamlangan va bu farqlarning tarixiy-gʻoyaviy manbalari yevrosentrizmga borib taqaladi. “Seonjinguk” soʻzma-soʻz tarjimada “oldinda ketuvchi mamlakat”, yaʼni rivojlangan, ilgʻor davlatni anglatadi, “hujinguk” “ortda qoluvchi mamlakat” maʼnosini beradi.

Ushbu konsepsiya Koreyada 1960-yillarda paydo boʻlgan “rivojlanish rejimi” (developmental state) nazariyasi orqali amaliyotda mustahkamlandi. Jumladan, 1961 yilda harbiy toʻntarish orqali hokimiyatga kelgan Pak Chon Xining iqtisodiy strategiyasi va milliy istiqbol konsepsiyasi Koreya rivojlanish traektoriyasining boshlangʻich nuqtasi sifatida eʼtirof etiladi.

“Rivojlangan davlat” diskursi developmentalism nuqtai nazaridan Koreya jamiyatini transformasiya qilish, milliy gʻoyani shakllantirish va barqaror ijtimoiy manzarani taʼminlash uchun ideal gʻoya sifatida namoyon boʻldi. Bu tushuncha shartli ravishda ikki

toifaga bo'linadi: konkret (aniq) va abstrakt (ma'naviy). Konkret kategoriyaga IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va TKQ (Taraqqiyotga ko'mak qo'mitasi) kabi xalqaro moliyaviy va institusional tuzilmalar, yuqori daromadli mamlakatlar kiradi.

Abstrakt ma'noda esa "rivojlangan mamlakat" tushunchasi milliy orzu, ijtimoiy maqsad, yuksak maqom va turli sohalarda erishish lozim bo'lgan yuqori standartlar to'plamini anglatadi. Har qanday diskurs singari, mazkur diskurs ham dinamik bo'lib, Koreya tarixiy transformasiyasi jarayonida milliy va global omillar ta'sirida turli o'zgarishlarga uchrab kelmoqda. Masalan, 1960-yillardan 1980-yillar o'rtalarigacha avtoritar rejim hukmronligi davrida hukumat "guendaewa" (modernizasiya) shiori bilan harakat qilgan bo'lsa, 1990-yillarda buni "segyehwa" (globallashuv) tushunchasi almashtirdi. 2000-yillar oxiriga kelib esa "seonjinwa" (ilg'orlikka erishish) shiori ilgari surildi va bugungi kunga qadar rivojlanish strategiyasida muhim mezon sifatida saqlanib kelmoqda [4,77].

Pak Chon Xi rejimi antikommunistik yo'nalishga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi tezkor iqtisodiy o'sishga erishish edi. Bu jarayonda rivojlanish va antikommunizm g'oyalarini milliy mafkura bilan uyg'unlashtirish orqali "Vatanni modernizasiya qilish" shiori ostida yangi sintetik hokimiyat diskursi shakllantirildi. Ushbu davrda Pak Chon Xi Koreyaning mavjud holatini "rivojlanmagan mamlakat" deb baholagan bo'lib, asosiy muammolar sifatida iqtisodiy rivojlanishning past darajasi va aholi o'rtasidagi keng qashshoqlikni ta'kidlagan. Shu bois, mamlakatni "ilg'or davlatlar" - ya'ni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uning milliy siyosatida 1960–1980 yillar davomida asosiy strategik maqsad sifatida belgilandi.

Undan keyingi Chon Du Xvan rejimi ham Pak Chon Xining asosiy strategik yo'nalishlarini saqlab qoldi va tezkor iqtisodiy o'sish siyosatini davom ettirdi. Bu jarayonda "rivojlangan mamlakat" diskursi Koreyaning "etaklovchi iqtisodiyot" modelidagi ideologik asos sifatida muhim rol o'ynadi. Ammo ushbu diskurs 1980-yillarda globallashuv ta'sirida sezilarli transformasiyaga uchradi. Industrializasiya va demokratizasiya bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlagan Koreya endi yangi rivojlanish modelini ishlab chiqishi zarur edi. Bu model milliy yangilanish va global muammolarga samarali echim taklif qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Prezident Kim Yon Sam (1992–1997) ma'muriyati "ilg'orlikka erishish" siyosatini globallashuvning rasmiy yo'nalishi sifatida joriy etdi. 1995 yildagi Yangi yil murojaatida Prezident Kim ushbu siyosatni xalqaro raqobatda samarali ishtirok etish vositasi sifatida joriy etish zarurligini e'lon qildi. U globallashuvni bir vaqtda ham inqiroz, ham yangi imkoniyat sifatida baholagan. Koreya milliy elitasi globallashuvni universal tendensiya sifatida qabul qildi va uni global raqobatbardoshlikka va ilg'orlikka olib boruvchi yo'l sifatida qo'llab-quvvatladi.

"Ilg'orlikka erishish" siyosati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, strategik rivojlanish rejalari yuqoridan pastga yo'naltirilgan tarzda - "top-down" mexanizmi orqali amalga oshirildi. Koreya 1996 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lganidan so'ng, "rivojlangan mamlakat" konsepsiyasi milliy moddiy istiqbol sifatida qabul qilindi va unga erishish muqarrar maqsad sifatida baholandi.

Ushbu diskurs keyingi davrlarda muhim tarkibiy o'zgarishlarga duch keldi. Birinchidan, "rivojlangan mamlakat" tushunchasi omma orasida keng tarqaldi va uning ma'naviy mazmuni umumiy lashgan, ideallashgan xarakter kasb etdi. Ikkinchidan, ushbu

tushuncha faqat iqtisodiyot bilan cheklanib qolmasdan, davlat siyosati, ta'lim, diplomatiya, mehnat munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash sohalariga ham kengaydi. Uchinchidan, demokratik tizimning mustahkamlanishi natijasida siyosiy sohada ushbu tushuncha atrofidagi qarashlar ikki guruhga – konservatorlar va islohotchilarga bo'lindi.

Konservatorlar ushbu konsepsiyani erkinlik, o'sish va bosqichma-bosqich neoliberal kapitalizmga asoslangan bozor iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rishdi. Ular Amerikaning iqtisodiy modelini afzal deb hisoblashdi. Aksincha, islohotchilar esa ijtimoiy tenglik va davlatning iqtisodiyotga faol aralashuviga asoslangan G'arbiy Yevropa modeliga tayanadigan ijtimoiy davlat tamoyillarini ilgari surishdi [5,66].

Osiyo moliyaviy inqirozi davrida Prezident Kim De Jun ma'muriyati yangi global chaqiriqlar bilan to'qnash keldi va globallashuv konsepsiyasidan xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan tavsiya etilgan tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirishda ichki qarshi fikrlarni engish vositasi sifatida foydalandi. Neoliberal islohotlar Koreyani "rivojlangan davlat" maqomiga etkazish yo'lida zarur qadam sifatida joriy etildi. Shunga qaramay, Kim De Jun va keyinroq Prezident No Mu Xyon ma'muriyatlari "rivojlangan davlat" konsepsiyasini o'zlarining progressiv siyosatlariga muvofiq ravishda ko'proq plyuralistik va populistik diskursiv yondashuv asosida shakllantirdi. "Universal globalizm" shiori ostida ushbu konsepsiyaning ideallari demokratiya, erkinlik, farovonlik va inson huquqlari nuqtai nazaridan qayta ifoda etildi, bu esa mamlakatdagi demokratik jarayonlarni faollashtirish va farovon jamiyat barpo etishga qaratilgan kun tartibi bilan muvofiqlashtirildi.

2008 yilda global moliyaviy inqiroz avj olgan davrda Prezident Li Myon Bak boshchiligidagi konservativ kuchlarning hokimiyatga qaytishi "rivojlangan davlat" konsepsiyasining qayta tiklanishiga olib keldi. Ushbu konsepsiya davlat siyosati va milliy identifikasiyaga yangicha yondashuv bilan namoyon bo'ldi. Bu o'zgarishlar "rivojlangan millat" shiori orqali rasman ifoda etildi va u milliy o'zlik masalasida hukumat siyosatida markaziy o'rinni egalladi. Prezident Li ma'muriyatining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat edi: iqtisodiy o'sishni ta'minlash (JChYani aholi joniga 30 000 dollarga etkazish), ichki siyosatda populizmdan liberal demokratiyaga o'tish, jamiyatda xususiy va jamoat manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlash, global madaniyatni shakllantirish hamda Koreyaning xalqaro munosabatlarini qayta tashkil etish. Aslida, "rivojlangan millat" konsepsiyasi jamiyatdagi kollektiv sa'y-harakatlarni innovasiyalarga asoslangan taraqqiyot orqali amalga oshirishni nazarda tutuvchi neoliberal g'oyaning mukammal shakli sifatida shakllandi.

Shu nuqtai nazardan "Global Koreya" tushunchasi keng tarqaldi va bu atama Koreya jamiyatidagi globallashuv va milliychilik elementlari o'rtasidagi muvozanatni ifoda etuvchi sinovli sintez sifatida qabul qilindi. Ushbu maqolada "Global Koreya" konsepsiyasining evolyusiyasi globallashuv kontekstida milliy identifikasiya siyosati nuqtai nazaridan Koreyaning zamonaviy tashqi siyosatini alternativ tarzda anglash vositasi sifatida qaralgan. Bu jarayonda "seonjungk" - ya'ni "ilg'or davlat" diskursi va uning tashqi siyosatga ko'rsatayotgan ta'siri doimiyliigi va ta'sir doirasining kengayishi bilan ta'riflangan. Maqolada ta'kidlanganidek, Koreyani "rivojlangan millat" sifatida namoyon etish uchun hukumat iqtisodiyotda emas, balki jamiyatning barcha sohalarida yuqori darajadagi taraqqiyotni ta'minlashga intildi, jumladan, diplomatik amaliyot

sohasida ham. Koreya tashqi siyosatining globallashuvi -bu mamlakatning “rivojlangan davlat” standartlariga diplomatik moslashuv jarayonini anglatadi. Milliy identifikasiyaning mustahkam shakli Koreyaning diplomatik amaliyoti va xalqaro rolini “Global Koreya” umumiy shiori ostida shakllantirish uchun aniq conceptual qolip vazifasini oʻtadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati:

1. Shin Soon-ok. South Korea's Elusive Middlepowermanship: Regional or Global Player // The Pacific Review, 2015.
2. Kim S. Korea's Globalization. – New York: Cambridge University Press, 2010. – P. 350.
3. Kim S. Korea and Globalization: A framework for Analysis. – New York: Cambridge University Press, 2000. – P. 1-28.
4. De Cella R. The discursive construction of national identities. // Discourse and Society. – 1999. – №10 – P. 149-173.
5. Escobar A. Encountering development: the making and unmaking of the third world. – Princeton: Princeton University Press. – pp. 1995 – 120.
6. Jan Nederveen Pieterse. Development Theory – London: Sage, 2009. – P. 87.
7. Kim J. The west and east asian national identities: a comparison of discourses of korean seonjinguk, japanese nihonjinron, and chinese new nationalism. // Globalization and Development in East Asia. – New York: Routledge, 2012. – pp. 80-97.
8. Kim J. The discursive structure of developmentalism in Korea: a comparison of geundaehwa, segyehwa, and seonjinhwa discourses. // Economy and Society, 2012. – №103 – pp. 166-195.
9. Kim J. South Korea's historical constructions of advanced country: the discourse of seonjinguk from the 1980s to the present. // Society and Theory, 2011. – №18 – pp. 315-351.
10. Kang Eliot. Segyehwa reform of the South Korean developmental state. In Korea's globalization. – New York: Cambridge University Press, 2000. – pp. 76-101.
11. Son Hyeonju. Analysis of reasons and countermeasures for the necessity of alternative futures discourses in South Korea. // Futures, 2014 – №55 – pp.1-11.

AFGʻON URUSHIDA SOVET ARMIYASI TARKIBIDA OʻZBEKISTONLIK LAR ISHTIROKINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Shoyimov Sanjarbek Saidmurod oʻgʻli

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta oʻqituvchisi
sanjarbekshoyimov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Afgʻonistonda Sovet Ittifoqi tomonidan olib borilgan harbiy operatsiyalarda ishtirok etgan Oʻzbekistonlik harbiylarning roli va ahamiyatini oʻrganadi. Sovet armiyasining tarkibida boʻlgan Oʻzbekistonliklarning urushdagi ishtiroki manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada, asosan, Sovet armiyasida xizmat qilgan Oʻzbekistonliklarning tajribalari, ularning Afgʻonistondagi faoliyatining